

# Xalqaro sanoat maslahatlashuv kengashining ilk yalpi yig'ilishi bo'lib o'tdi

// 02 July 2025 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xalqaro-sanoat-maslahatlashuv-kengashining-ilk-yalpi-yig-ili>



«Yangi O'zbekiston» universitetida Xalqaro sanoat maslahatlashuv kengashining ilk yalpi yig'ilishi o'tkazildi. Unda Germaniya kompaniyalari bilan hamkorlik yo'nalishlari muhokama qilindi. Ushbu tashabbus O'zbekiston hamda Germaniyaning yirik sanoat tarmoqlari vakillari o'rtasida chuqur hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, talabalarni nemis kompaniyalarida amaliyot o'tash imkoniyati bilan ta'minlashni ko'zda tutadi.



Tadbirda "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisingining birinchi o'rinbosari Yevgeniy Korjikov ham ishtirok etdi.

Ta'kidlash joiz, kengash tarkibiga mamlakatimiz sanoatining yetakchi tashkilotlari - Energetika vazirligi, "O'zkimyosanoat" AJ, "O'zeltexsanoat" uyushmasi, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiy KMK" AJ hamda "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining vakillari kiritilgan. Shuningdek, Germaniyaning nufuzli kompaniyalari - "DaimlerChrysler AG", "BOSCH", "STADA Arzneimittel AG", "TAL Group" va "Siemens Energy" rahbarlari ham kengash a'zosi sifatida qatnashdilar.



Kelgusida «Yangi O'zbekiston» universitetida mazkur kompaniyalarning laboratoriya va ishlab chiqarish markazlarini tashkil etish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati